

ZAMONAVIY MODA YO'NALISHIDA AYOLLAR RATSIONAL POYABZALINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Uzoqova Laylo Polvonovna

*Buxoro davlat texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn" kafedrası
dotsenti*

Avezova Anoraxon Azimovna

Buxoro davlat texnika universiteti, M28-25 YeSTJ guruhi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar ratsional poyabzallarini yaratishda moda va qulaylik uyg'unligini ta'minlash masalasiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlar tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning poyabzal konstruksiyasi va texnologiyasi bo'yicha olib borgan izlanishlari o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida moda, estetik dizayn va ergonomik qulaylikni birlashtiruvchi ratsional poyabzal modellarini ishlab chiqishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ayollar poyabzali, moda, qulaylik, ratsional konstruksiya, ergonomika, texnologiya, tadqiqot tahlili.

Abstract: This article analyzes research works devoted to ensuring the harmony of fashion and comfort in the creation of rational women's shoes. The research conducted by foreign and domestic scientists on the design and technology of footwear was studied. As a result of the research, the relevance of developing rational footwear models that combine fashion, aesthetic design, and ergonomic comfort is substantiated.

Keywords: women's shoes, fashion, comfort, rational design, ergonomics, technology, research analysis.

Zamonaviy ayollar poyabzali inson salomatligi, qulaylik va moda talablari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi zarur. Bugungi kunda poyabzal ishlab chiqarishda nafaqat tashqi ko'rinish, balki anatomo-fiziologik moslik, gigiyena, yengillik va bardoshlilik kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, kundalik kiyish uchun mo'ljallangan ayollar poyabzallarida moda va qulaylik uyg'unligini ta'minlash ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish ushbu sohada yangi ilmiy va texnologik yechimlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Poyabzal konstruksiyasini takomillashtirish va uning ergonomik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha xorijiy olimlar salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Yu.P. Zibin, V.A. Fukin, M.V. Kiselyova, N.V. Fransuzova, Ya.M. Klebanov, R.Ya. Ioffe, S.P. Aleksandrov, A.N. Lukyanova, Yu.S. Kostyuxova, V.B. Bregovskiy, D. Morton, M.M. Rodgers kabi tadqiqotchilar poyabzalning inson oyoq shakliga mosligi, yurish paytidagi bosim taqsimoti, taglik materiallarining elastikligi, nafas oluvchanlik darajasi va gigiyenik talablari bo'yicha muhim ilmiy xulosalar berganlar.

Ularning ishlari poyabzal ergonomikasini takomillashtirish, qulay yurish mexanikasini ta'minlash va estetik dizaynni saqlagan holda ratsional konstruksiyalar yaratish masalalariga qaratilgan.

O'zbekistonlik olimlar ham poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi va dizaynini rivojlantirish sohasida samarali ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. A.A. Haydarov, U.M. Maqsudova, K.I. Abulniyazov, D.N. Akbarov, M.U. Ilxamova, N.B. Mirzayev, D.Z. Pazilova, S.S. Musayev, M.J. Muhammedova, A.M. Aslonov kabi tadqiqotchilar tomonidan poyabzal konstruksiyasining ergonomik talablarga muvofiqligi, ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirish, materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy ishlanmalar yaratilgan. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlari poyabzalning inson oyoq tuzilishiga mosligini oshirish, issiqlik va havo almashinuvi, taglik moslashuvchanligini ta'minlash, shuningdek, ayollar poyabzallarida moda talablarini inobatga olishga qaratilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar poyabzal texnologiyasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ergonomik ko'rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qilgan. Biroq, moda va qulaylik uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ayollar ratsional poyabzallarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Kelgusida bu yo'nalishda zamonaviy materiallar (eko-charmlar, polimer kompozitlar), 3D-modellashtirish va raqamli dizayn texnologiyalarini qo'llash orqali poyabzal konstruksiyalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ayollar ratsional poyabzallarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada moda, qulaylik, ergonomika va texnologik yangiliklarni uyg'unlashtirish hali to'liq amalga oshirilmagan. Shu sababli, kundalik kiyish uchun mo'ljallangan ayollar poyabzallarini yaratishda moda va qulaylik uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Bu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari nafaqat mahalliy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki milliy poyabzal sanoatini jahon bozori talablariga moslashtirishda ham muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Петров, В. "Конструирование обуви и технологии производства" – Москва: Легпромбытиздат, 2017.
2. Krasnov, A. "Footwear Design: Theory and Practice" – London: Bloomsbury, 2016.
3. Иванов, С. "Анатомия и физиология стопы человека" – Санкт-Петербург, 2019.
4. Helander, M.G. "A Guide to Human Factors and Ergonomics" – CRC Press, 2018.
5. Zhang, Y., "Smart and Functional Textiles for Footwear" – Woodhead Publishing, 2021.
6. Миронов, А. "Материалы для обувной промышленности и их обработка" – Москва, 2018.